

KO'KDALA TUMANI ANNARUZ QISHLOG'I SHEVASINING LINGVISTIK TADQIQIGA DOIR MULOHAZALAR

Ashurova Mashhura G'ulomjonovna
Ko'kdala tumani 79- maktabning
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o'zbek tilining Ko'kdala tumani Annaruz qishlog'i shevasida faol qo'llanuvchi ayrim so'zlar adabiy tildagi va mavjud shevalardagi so'zlar bilan qiyoslanib, tahlilga tortilgan hamda bu to'g'rida fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, dialektdagi leksik birliklar va o'zbek shevalariga qiyoslangan.

Kalit so'zlar: Annaruz qishlog'i shevasi, dialektologiya, qipchoq lahjasi, leksik xususiyatlar, so'zlashuv nutqi.

Til egasi nutq uchun qulay birlik izlaydi, fikrini oson, ta'sirchan va tushunarli yetkazish so'zlovchining asosiy maqsadi hisoblanadi. Shu bois adabiy tildagi birliklar shevalarda turli o'zgarishlarga (fonetik, leksik, grammatik o'zgarishlar) uchrashi mumkin. O'zbek tili shevalarini atroflicha o'rganish faqat lingvistik xarakterga ega bo'libgina qolmasdan, balki o'zbek xalqining shakllanish tarixini, ya'ni uning etnogenetik jarayonini aniqlashda asosiy o'rin egallaydi. O'zbek tilining qipchoq lahjasiga kiruvchi Ko'kdala tumani shevasida ko'p asrlik tarixiy taraqqiyotni aks ettiruvchi juda ko'p til faktlari mavjud, bu esa mazkur shevani har tomonlama tarixiy va qiyosiy jihatdan o'rganishni taqozo etadi. Xususan, M.Koshg'ariy "Devonu lug'otit turk" asarida tilshunoslikning ko'plab sohalarini qamrab oldi. Unda turkiy tillar, xususan, o'zbek tilining fonetik, leksik, grammatik, dialektal xususiyatlariga doir muhim ma'lumotlar aks etgan.

Ma'lumki, shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi, hamda u milliy-ma'naviy qadriyatlardan biri hisoblanadi. Aslida ham ona tili deganda, sheva tushunilishi haqiqatga yaqindir. Shuning uchun ham uni asrab-avaylash, qadrlash zarurati ortib boraveradi.

Ko'kdala tumani Annaruz qishlog'i shevasini kuzatishlarimiz natijasida adabiy tilimizda mavjud bo'lmagan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan, o'sha xududning mentalitetini ifodalovchi leksemalarni o'rgandik.

"Bugungi kungacha Qashqadaryo o'zbek xalq shevalarini o'rganilishida Ye. D. Polivanov, A. Shermatov, T. Nafasov, B Jo'rayev, D. Abdurahmonov, T. O'rinov, T. Qudratov, N. Mirzaev, Q. Xurramov, K. Usmonov, T. Enazarov, X. Jabborov, K. Markayev, E. Jabborov, N. Shoimova, O. O'riovalar ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan. Makur tadqiqotchilar bu hudud shevalari leksikasini o'rganish bo'yicha amalga oshirgan tadqiqotlari doirasida ko'pgina kitoblar, lug'atlar, maqolalar nashr ettirishgan". [X.Jabborov 2022:170 b.] Biz tahlilga tortayotgan Ko'kdala tumani shevasi Yuqori Qashqadaryo qipchoq shevalari tarkibiga kirib, bu hudud leksekasi bo'yicha ko'pgina olimlarimiz, jumladan, B. Jo'rayev, T. Enazarov, N.Sholimovalar ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan. Biroq shevashunos olim Samixon Ashurboyev ta'kidlaganidek "shevalar to'xtovsiz rivojlanib boradi, bu esa shevalarning doimiy ravishda nazariy jihatdan o'rganib borishni taqozo etadi va ilmiy-nazariy ahamiyatini

keltirib chiqaradi.”[S.Ashirboyev, 2021: 8]. Quyida Annaruz qishlog‘i leksikasi haqida fikr yuritamiz.

Juvona – leksemasi Annaruz qishlog‘i shevasida *ayol kishi* ma’nosida qo‘llaniladi. Bu leksemaning boshqa shevada yoki badiiy asarlarda juvon variantini kuzatganmiz, ammo Annaruz leksikasida juvona tarzda qo‘llanilishining guvohi bo‘lamiz. Bu esa sheva leksikasi ma’no ottenkasining yuqoriligidan dalolatdir. (*Voh, bu juvona kim ekan-a. O.A.*)

Uvak – so‘zi shevada *chaqaloq* ma’nosida ishlatiladi. Mazkur leksemaning boshqa shevalarda bubak, buvak singari variantlari ham qo‘llaniladi. Annaruz shevasida esa boshqa shevalarda uchramaydigan uvak shakli qo‘llaniladi. (*Gulmira uvaklab qog‘incha maktabda jurdi. Z. B.*)

Jilqurs – so‘zi ham shevada faol qo‘llanishda bo‘lib, ip igirib, qo‘l mehnati bilan to‘qiladigan gilam ma’nosini anglatadi. Bundan sheva vakillarining asosiy mashg‘ulatlaridan biri to‘quvchilik kasbi ekani ham namoyon bo‘ladi. (*Men qizimding jilqurslariniyam tayyorlap qo‘ybedim. N.A.*)

G‘o‘jala – so‘zi shevada *muammoli* degan ma’noni anglatadi. Sheva vakillari nutqida bu so‘z juda faol va keng qo‘llanilishdadir. (*Tekshirish keguncha hamma ishti hal qinglar, yana keyin g‘o‘jala bo‘lip jotmasin. O.A.*)

Somirdamoq – ushbu so‘z *ko‘p gapirmoq* ma’nosida sheva leksikasida faol so‘zlardan biri sanaladi. Asosan yoshi kattalar tomonidan yosh bolalarga nisbatan qo‘llaniladi. (*Bachalar ko‘p somirdamanglar boshim ovriyapti. M.H.*)

Jongag‘i – *hozirgi*, *o‘sha* ma’nolarida faol qo‘llanishdagi birlikdir. Ko‘rinadiki, shevada shu tilda so‘zlashuvchilarning butun borlig‘ini namoyon qiladigan shevaga xos birliklar talaygina.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, Annaruz qishlog‘i shevasi shevalararo qiyoslanganda, leksik jihatdan ham o‘ziga xos bo‘lib, shakliy tuzilishidan rang-barangdir. Shevadagi leksemalarning ayrimlari bir xil ma’noda ishlatilsa, ayrimlari ma’no kengayishi yoki torayishiga uchragan holda hozirgi kungacha yetib kelganligi ma’lum bo‘ldi. Tilimiz boyligi sanalgan sheva va lahjalarimizdagi so‘zlarni yozib olib, bu orqali adabiy tilimizni yanada to‘ldirib, boyitib borish dolzarb masalardan biridir.

Adabiyotlar:

1. S.Ashirboyev. O‘zbek dialektologiyasi. –Toshkent. 2021. -B. 8.
2. Jabborov Xo‘jamurod Jabborovich Bolta Jo‘raev – yuqori qashqadaryo shevalarining Zukko va zahmatkash tadqiqotchisi. “O‘zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, Metodologiya va yangicha yondashuv” 168-173 b.]
3. Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: ФАН, 1971.